

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASASI MADANIYAT VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS  
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**O‘ZBEKISTON DAVLAT XOREOGRAFIYA AKADEMIYASI**

**O‘ZBEK TILIDA XOREOGRAFIK  
TERMINLARNING  
SHAKLLANISHI:  
BUGUNGI HOLATI VA  
TARAQQIYOT BOSQICHLARI**

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI MATERIALLARI**

**TOSHKENT – 2021**

**UDK: 452.21.632**

**KBK: 42.2(Ў36)**

Ushbu to'plamda madaniyat, san'at va musiqa yo'nalishlari bo'yicha faoliyat olib borayotgan turli ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, pedagoglari, ilmiy izlanuvchilari va magistrantlarining ilmiy maqolalari o'rin olgan.

**Mas'ul muharrir:**

**Jomonov R.O.**

- O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi professori, filologiya fanlari nomzodi

**Muharrirlar:**

**Xudoynazarova  
Sh.T.**

- O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi "Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish" bo'limi boshlig'i

**Tashkenboyev  
P.E.**

- O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi "San'at nazariyasi va tarixi" kafedrasini mudiri, san'atshunoslik nomzodi

**Taqrizchilar:**

**Ismoilov H.**

- O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Jahon tillari va adabiyoti" kafedrasini mudiri, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Zokirova S.M.**

- O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Sahna harakati va jismoniy tarbiya" kafedrasini katta o'qituvchisi

**Mazkur to'plam O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Ilmiy kengashining 2021-yil 1-maydagi yig'ilishida ma'qullangan va nashrga tavsiya etilgan (9-sonli bayonnoma).**

**ISBN: 978-9943-7089-4-5**

© «Fan ziyosi» nashriyoti 2021

© O'ZBEKISTON DAVLAT XOREOGRAFIYA AKADEMIYASI

2. ХАБИТАТ III Исследовательские доклады. 4 - городская культура и наследие. Нью-Йорк, 31 Май 2015.
3. <https://lex.uz/>

**SAN'AT, XUSUSAN, MUSIQAGA OID TERMINLARNING  
LEKSIK-SEMANTIK HAMDA MILLIY-MADANIY TAHLILI  
(fransuz va o'zbek tillari misolida)**

**Gulchehra Hojiyeva**  
Buxoro davlat universiteti  
mustaqil tadqiqotchisi

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada terminologiyaning soha sifatida fanda tutgan o'rni, shuningdek, ikki noqardosh til — fransuz va o'zbek tillaridagi san'at, xususan, musiqa san'ati terminlarining leksik-semantik hamda milliy-madaniy xususiyatlari tahlili to'g'risida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** terminologiya, termin, san'at terminlari, xalqaro madaniy aloqalar, cholg'u, asbob-uskuna, doira, g'ijjak, dutor, surnay, karnay, dutorchi, chang, rubob, navo, maqom, ushshoq, Shashmaqom, lapar, allonje, kruaze.

**Аннотация**

В статье рассматривается роль терминологии в науке, а также анализ лексико-семантических и национально-культурных особенностей терминов двух несравнимых языков - французского и узбекского, в частности, музыкального искусства.

**Ключевые слова:** терминология, термин, художественные термины, международные культурные связи, инструмент, оборудование, тамбурин, гиджак, дутар, сурнай, карнай, дутарист, чанг, рубаб, мелодия, маком, ушшок, Шашмаком, лапар, аллонже, круазе.

**Annotation**

This article discusses the role of terminology in science, as well as the analysis of the lexical-semantic and national-cultural features of the

terms of two incomparable languages - French and Uzbek, in particular, the art of music.

**Key words:** terminology, term, art terms, international cultural relations, instrument, equipment, tambourine, fiddle, dutar, little trumpet, trumpet, navo, Shashmaqom, lapar, allonge, kruaze

Ma'naviyat xalqni, millatni ulug'laydigan, uni butun dunyoga tanitguvchi eng muhim omildir. Til esa, uning birlamchi va asosiy bo'g'ini, tub ildizi, xalqning tarixi, buguni va kelajagining yaqqol ifodasi, ananalari va madaniyati in'ikosi hisoblanadi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda musiqa va san'at sohalariga, bu boradagi mamlakatlararo madaniy aloqalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yurtimizda muntazam ravishda "Sharq taronalari" (Samarqand), "Ipak va ziravorlar" (Buxoro), "Maqom challenge" (Shaxrisabz) festivallarining tashkil etib kelinayotgani xalqaro madaniy aloqalarda san'an, xususan, musiqa sohasining alohida ahamiyat kasb etayotganligi sabab, mazkur sohaga doir terminlarning izchil o'rganilishini taqozo etmoqda.

Shu bois, zamonaviy tilshunoslikda mazkur sohaga doir terminlarni chuqurroq o'rganish yanada taraqqiy etdi. Turli fan sohalariga oid terminlar o'zbek tilshunosligida dastlab XX asrning 20-30 yillarida o'rganila boshlangan. Terminlarni o'rganishdan asosiy maqsad chet tillaridan kirib kelayotgan so'zlarni o'z ona tilimizga aynan mos tushadigan so'zlarga almashtirish va tarjima qilishdan iboratdir.

Tilshunoslikka yangi terminning kirib kelishi yangi imkoniyatlarni ochibgina qolmay, o'ziga xos qiyinchiliklarni ham paydo qiladi. [1, 62]. Qolaversa, tildagi so'z boyligini o'rganmay turib, xalqning o'zligini ifodalovchi boy ma'naviy merosi hamda tarixini mukammal bilib bo'lmaydi. Zero, har bir o'rganilgan til insonga yangi hayot bag'ishlaydi. Ushbu g'oyani fransuz adibi Volterning "Ko'p tilni bilish – bitta qulfga tushadigan bir nechta kalitga ega bo'lish demakdir" [4, 159] deya bildirgan fikrlari ham tasdiqlaydi.

Biz tadqiq etayotgan fransuz va o'zbek tilidagi san'at terminlari ham milliy-madaniy ko'lami jihatidan muhim ahamiyatga ega. Shu bois,

quyida keltirilgan san'at terminlariga doir misollar ham milliy, ham lisoniy xususiyatiga ko'ra tadqiq va tahlil etildi. [2.]

*jadval-1*

<i>Nº</i>	<i>o'zbek tilida</i>	<i>fransuz tilida</i>
1.	<i>asbob</i>	1) <i>instrument m</i> ; 2) <i>outil m</i> ; 3) <i>ustensile m</i> ; 4) <i>matériel m</i> ; 5) <i>outillage m</i> ; 6) <i>installation f</i> ; 7) <i>objet m</i> ;
2.	<i>asbob-uskuna</i>	1) <i>outillage m</i> ; 2) <i>installation f</i> ; 3) <i>équipement m</i> ; 4) <i>appareillage m</i> ;
3.	<i>ashyo</i>	1) <i>objet m</i> ; 2) <i>chose f</i> ; 3) <i>ustensile m</i> ; 4) <i>affaire f</i> ; 5) <i>effet m</i> ; 6) <i>matière f</i> .


Yuqorida berilgan misollarda o'zbek tilidagi "asbob", "asbob-uskuna" va "ashyo" so'zlari fransuz tilida ma'no jihatdan o'zaro sinonim bo'lib kelmoqda. Chunki, 1- va 3-misollardagi "ustensile", "objet" hamda 1- va 2- misollardagi "installation", "outillage" so'zlari bir ma'noni ifodalamoqda. Bundan kelib chiqadiki, har ikkala tilda bir ma'noni bir necha usulda ifodalash mumkin:

- ✓ cholg'u asboblari *instruments de musique*;
- ✓ musiqiy asbob-uskunalar *équipement musical*;
- ✓ musiqiy ashyolar *ustensiles musicaux*.

*2- jadval*

<i>Nº</i>	<i>o'zbek tilida</i>	<i>fransuz tilida</i>	<i>o'zbek musiqa asboblari</i>	<i>fransuz musiqa asboblari</i>
1.	<i>doira</i>	<i>tambourin m.</i>		

2. g'ijjak violon m.



Ushbu misollarda keltirilgan musiqa asboblari o'zbek va fransuz tili milliy-madaniy xususiyatidan kelib chiqqan bo'lib, har ikkala xalqda mavjud bir-biriga juda o'xshash ashyolar nomlari o'zaro ekvivalentlik hosil qilgan.


*jadval -3*

<i>N<sup>o</sup></i>	<i>o'zbek tilida</i>	<i>fransuz tilida</i>	<i>rasm</i>
----------------------	----------------------	-----------------------	-------------

1.	<i>dutor</i>	<i>doutor</i>	
----	--------------	---------------	--

2.	<i>chang</i>	<i>tchagne</i>	
----	--------------	----------------	--

3. *surnay* *sournai*



3-jadvaldagi o‘zbek musiqa asboblari nomining fransuz tilida muqobili bo‘lmaganligi sabab, ularning tarjimasi o‘z milliy til xususiyatini saqlagan holda o‘girilgan.

**4-jadval**

<i>N°</i>	<i>o‘zbek tilida</i>	<i>fransuz tilida</i>	<i>izoh</i>
1.	<i>segoh</i>	<i>une des six parts du chachmaqam</i>	<i>Shashmaqomning olti maqomidan biri</i>
2.	<i>tanbur mus</i>	<i>instrument m à 3 ou 4 cordes</i>	<i>3 yo 4 torli musiqiy asbob</i>
3.	<i>toqil mus</i>	<i>partie f du maqâm</i>	<i>maqom bo‘lagi</i>
4.	<i>tor mus</i>	<i>instrument m à cordes</i>	<i>torli asbob</i>
5.	<i>ushshoq mus</i>	<i>type de mélodie appartenant au maqâm</i>	<i>maqomga doir musiqa turi</i>
6.	<i>yor-yor</i>	<i>nom d'une chanson traditionnelle de mariage</i>	<i>nikoh to‘yida kuylanadigan ananaviy qo‘shiq nomi</i>
7.	<i>shashmaqom mus</i>	<i>œuvre f musicale classique ouzbèque composée de six parties</i>	<i>olti qo‘shiqdan iborat o‘zbek mumtoz musiqiy asari</i>
8.	<i>shashtor</i>	<i>instrument m de</i>	<i>olti torlik musiqiy asbob</i>

<i>mus</i>	<i>musique à six cordes</i>	
1. <i>rubob mus</i>	<i>instrument m traditionnel à cordes</i>	<i>ananaviy torli asbob</i>
1. <i>rubobchi</i>	<i>joueur, euse de rubob chahuvchi rubob</i>	

4-jadvalda keltirilgan mazkur misollarni qiyosiy tahlillaganda, lingvistik nuqtai nazardan o‘zbek tilidagi terminlarning fransuz tilidagi tarjimalari bir yoki bir nechta so‘zlar vositasida hosil qilinganligi, milliy-madaniy xususiyatiga ko‘ra esa, ushbu atamalarning faqat o‘zbek tiliga xos bo‘lib, fransuz tilida aynan muqobili bo‘lmaganligi sabab, o‘girmalar izoh shaklida keltirilganligi kuzatildi.

#### 5-jadval

<i>No</i>	<i>o‘zbek tilida</i>	<i>fransuz tilida</i>	<i>izoh</i>
1.	<i>karnay</i>	<i>long instrument à vent, en forme de trompe</i>	<i>surnay shaklidagi puflab chalinadigan uzun soz</i>
2.	<i>karnaycha</i>	<i>trompette f</i>	
3.	<i>cholg‘u</i>	<i>instrument m de musique</i>	<i>musiqqa asbobi</i>
4.	<i>cholg‘uchi</i>	<i>musicien, ienne.</i>	

5-jadvalda keltirilgan terminlar o‘girmasida har ikkala tomonning milliy til xususiyatlari saqlanganligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, yuqoridagi misollar tarjimasida asosida, “karnay” va “cholg‘u” so‘zlari aynan faqat o‘zbek milliy musiqa sohasiga xos bo‘lgan terminlar ekanligi sabab, ular tarjimasining atamalar mazmunini izohlovchi so‘zlar vositasida hosil qilinganligi, shu terminlar asosidan yasalgan “karnaycha” va “cholg‘uchi” so‘zlari o‘girmalarining esa fransuz tilidagi ekvivalentlarga ega ekanligi oydinlashadi. [2.]



## 6-jadval

<i>Nº</i>	<i>o‘zbek tilida</i>	<i>fransuz tilida</i>	<i>izoh</i>
1.	<i>navo</i>	1) <i>mélodie f</i> 2) <i>air m</i> 3) <i>chanson</i> 4) <i>lamentation f</i> 5) <i>gémissement m</i> 6) <i>mus. une des six parts du chachmaqâm</i>	<i>musiqa</i> <i>havo</i> <i>qo‘shiq</i> <i>nola</i> <i>hasrat</i> <i>Shashmaqomning olti maqomidan biri</i>

Yuqorida 6-jadval asosida tahlilga tortigan “**navo**” termini tarjimasi bir vaqtning o‘zida ham omonimlik kasb etib, musiqa, havo, qo‘shiq, nola, hasrat kabi atamalar o‘girmasi sifatida bir necha ma’nolarni ifodalab kelmoqda, ham milliy-madaniy xususiyatiga ko‘ra u turkiy xalqlar musiqiy merosida markaziy o‘rin tutgan “Shashmaqom”ning 3-maqomi bo‘lgan “**Navo**”ga [5.] ishora qilib keladi.

## 7-jadval

<i>Nº</i>	<i>o‘zbek tilida</i>	<i>fransuz tilida</i>	<i>izoh</i>
1.	<i>maqom</i>	<i>musique f classique traditionnelle d'Asie Centrale</i>	<i>O‘rta Osiyo ananaviy milliy musiqasi</i>
2.	<i>maqomot</i>	<i>mode m musical de la mélodie maqam</i>	<i>Maqom ashulasining musiqiy ohangi</i>

7-jadvalda keltirilgan misollardan ko‘rinadiki, “**maqom**” va “**maqomot**” so‘zlari faqat o‘zbek milliy ashula san’atiga xos terminlar bo‘lib, ularning fransuz tilida aynan muqobili mavjud emas, ammo o‘girmani lisoniy vositalar izohi bilan berish maqsadga muvofiqdir. Masalan, “**maqom**” atamasi “*musique classique traditionnelle d'Asie Centrale*” tarzida izohlovchi so‘z birikma vositasida tarjimaga tortilgan bo‘lsa, “**maqomot**” “*mode musical de la mélodie maqam*” ko‘rinishidagi lisoniy birikma shaklida o‘girilgan va ushbu termini tarjima qilish jarayonida “maqom” so‘zi fonetik o‘zgarishga uchragan va natijada undagi “o” - “a” ga aylanib, “maqam” hosil bo‘lganini ta’lidlash o‘rinli.

## 8-jadval

<i>N<sup>o</sup></i>	<i>o'zbek tilida</i>	<i>fransuz tilida</i>	<i>izoh</i>
1.	<b>lapar</b>	genre musical folklorique composé de questions-réponses entre un groupe de garçons et un groupe de filles composé de chants improvisés accompagnés de danses	1. xalq og'zaki ijodiga asoslangan musiqiy janr 2. bir guruh yigit-qizlar o'rtasidagi aytishuv 3. raqslar jo'rligida kuylanadigan qo'shiqlar

8-jadval asosida tarjimaga tortilgan “**lapar**” so‘zining fransuz tilida aynan termin sifatidagi muqobili bo‘lmaganligi sabab, uning milliy va madaniy xususiyatlari semantik tahlil asosida yaqqol ochib berilganligini ko‘rish mumkin.

Tadqiqot davomida tibbiyot terminlarini lotin tilida yuritish shart bo‘lganidek, klassik raqs terminlarini ham fransuz tilida yuritilishining saqlanib qolganligi [3.17-18.] diqqatimizni tortdi. Jumladan,

## 9-jadval

<i>N<sup>o</sup></i>	<i>o'zbek tilida</i>	<i>fransuz tilida</i>	<i>izoh</i>
	<b>allonje</b>	<b>allongé</b> (uzaygan, cho‘zilgan)	barmoqlarning uzaytirilishi
	<b>kruaze</b>	<b>croisé</b> (kesishgan, chatishgan)	gavdaning yopiq yoki chalishtirilganligi
	<b>efasse</b>	<b>effacé</b> (ko‘zga tashlanmaydigan)	gavdaning ochiqligi yoki yumshatish
	<b>ekarte</b>	<b>écarté</b> (yakka, orasi ochiq)	gavdaning yon tomonlarga yopiq yoki ochiq holatlardaligi

<b>arabesk</b>	<b>arabesque (gajak; muqom)</b>	naqsh yoki bezaklar
<b>attityud</b>	<b>attitude</b>	ishchi oyoq 90 gradusga (gavdaning turish holati; odat, qiliq)
		orqaga ko'tarilgan, tizzalar sal bukilgan, gavda ochiq yoki yopiq holatda

9-jadvalda tahlil qilingan misollar asosida o'zbek raqs san'atida oyoq, barmoq, gavda va tizza harakatlarining aynan fransuzcha terminlar vositasida izohlanishiga guvoh bo'ldik va mazkur holatni nutqda qulaylik yaratish uchun, qolaversa, dunyo raqs terminologiyasidan samarali foydalanish maqsadida o'zbek tilidagi so'z birikmalari o'rnida fransuzcha (qisqa) terminlarga murojaat etilganligini ta'kidlash o'rinlidir.

Tahlillardan kelib chiqib, terminlar va terminologiya hamda bir soha doirasidagi terminlarni ikki va undan ortiq tillarga tarjima qilish borasida quyidagi xulosalarni bildirish mumkin:

1. San'at terminlariga doir tahlillardan kelib chiqib, terminologiyani biror bir ilmiy yoki san'at sohasiga oid terminlar jamlanmasi deb ham, aytish o'rinlidir.

2. Mamlakatimizda xoreografiya sohasida fransuz raqs terminlaridan samarali foydalanilib, mazkur atamalar o'zbek terminologiyasi boyishida o'z o'rnini va ahamiyatiga ega bo'lib hisoblanadi.

3. Nazarimizda terminologiyaning vazifasi nafaqat terminlarni ajratish yoki tahlil qilishdan, balki, maqsadga erishish va ma'noni anglatish yo'lida yangi terminlarni kashf etishdan ham iborat bo'ladi.

4. O'zbek va fransuz tillaridagi san'at terminlari, xususan, musiqiy ashyolar nomlari tarjimasida har ikkala xalqda mavjud bir-biriga juda o'xshashlik asosidagi o'zaro muqobillik hosil qilishi hamda ayrim o'zbek musiqa asboblari nomining fransuz tilida aynan ekvivalenti bo'lmaganligi sabab, ularning tarjimasini o'z milliy til xususiyatini saqlagan holda o'girilishi mumkin, degan xulosani bersa bo'ladi.

Shuningdek, terminlar – maxsus sohaga doir lug'atlar bo'lib, bunday lug'atlar aynan bir maqsadga yo'naltirilgan bir yoki bir necha tilli lug'atlar bo'lishi mumkinligi ma'lumdir. Qolaversa, terminologiyaning kelib chiqishi, tarixiy rivojlanishi, shakllana borishi hamda taraqqiy etishi

albatta, o'ziga xos qonun-qoidalar sababli paydo bo'ladi. Shu bilan birga, terminologiya umumxalq tilining leksikasi negizida paydo bo'ladi, rivojlanadi hamda uning boyishi uchun xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Jo'rayeva M.M. Fransuz va o'zbek ertaklarida modallik kategoriyasining lingvokognitiv, milliy-madaniy xususiyatlari. Filologiya fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya. T., 2017. 62-b.
2. Jo'rayeva M.M., Hojiyeva G.S. O'zbekcha-fransuzcha fransuzcha-o'zbekcha lug'at (dictionnaire ouzbek-français français-ouzbek), Musiqa va san'at sohasiga oid ikki tilli lug'at (o'quv-metodik qo'llanma). Buxoro, 2019. -184 b.
3. Saitova E.Yo., Abraykulova N.E. Xoreografiya va raqs san'ati asoslari. T., 2015. – B. 17-18.
4. Tafakkur gulshani. Toshkent, G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1989. 159-b.
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Shashmaqom>

### **SAN'AT VA MUSIQA TERMINLARI TARJIMASIDA MILLIY O'ZIGA XOSLIK VA LINGVISTIK TAHLIL (o'zbek va fransuz tili materiallari misolida)**

**Gulchehra Hojiyeva**

BuxDU o'qituvchisi

**Nosirova Shahlo**

BuxDU talabasi

#### **Annotatsiya**

Mazkur maqolada terminologiyaning soha sifatida fanga kirib kelishi haqida so'z boradi. Shuningdek, bu borada xorij va o'zbek olimlari tomonidan yaratilgan tadqiqotlar hamda terminologiya sohasidagi izlanishlar, qolaversa, fransuz va o'zbek tillarida san'atga doir terminlarning lingvomadaniy xususiyatlari haqida fikr yuritiladi.

**Калит сўзлар:** terminologiya, termin, san'at terminlari, kuy, ohang, ashula, nota, raqs, raqqosa, devon.

## MUNDARIJA

1.	<i>Abdirasilov S.</i> Talabalarning san'atshunoslik bilimlarini rivojlantirish . . . . .	3
2.	<i>Abdiyeva G.</i> Usta olim komilov – raqs san'atining sehgari . .	8
3.	<i>Adizova O.I., Berdiyeva Z.</i> La danse classique est la base de la choregraphiques . . . . .	13
4.	<i>Alimjanova Nodira Abdugaparovna</i> Musiqa san'atida romantizm oqimi va uning o'ziga xos xususiyatlari . . . . .	17
5.	<i>Абдухаликова Д.</i> Словообразовательные средства языка гениального русского баснописца Крылова . . . . .	20
6.	<i>Bektamishova N.</i> Umumta'lim maktab to'garak mashg'ulotlarida o'quvchilarda qo'shiq ijrochiligi malakalarini shakllantirish . . . . .	25
7.	<i>Boboqulov Q.</i> O'zbek an'anaviy qo'shiqchiligida fattohxon mamadaliyevning ijodiy merosi . . . . .	29
8.	<i>G'apurov M.</i> O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi: kecha va bugun . . . . .	34
10.	<i>Gulliyeva Y.</i> Umumta'lim maktabda "musiqa madaniyati" fanini o'qitishning huquqiy meyoriy asoslari. . . . .	38
11.	<i>Hamidova Sh.</i> Hind raqs teatriga bir nigoh . . . . .	44
12.	<i>Hamroyeva H.</i> O'zbek milliy raqs san'ati: libos va taqinchoqlar terminologiyasi . . . . .	48
13.	<i>Haydarova H.</i> Shahar ekotizimidagi madaniy muammolar . .	56
14.	<i>Hojiyeva G.</i> San'at, xususan, musiqaqa oid terminlarning leksik-semantik hamda milliy-madaniy tahlili (fransuz va o'zbek tillari misolida) . . . . .	59
15.	<i>Hojiyeva G, Nosirova Sh.</i> San'at va musiqa terminlari tarjimasida milliy o'ziga xoslik va lingvistik tahlil (o'zbek va fransuz tili materiallari misolida) . . . . .	68